

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>F.Xalikov</b>	
Ta'lrim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati .....	211
<b>A.A.Mirzayev</b>	
Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari .....	217
<b>S.A.Azamova</b>	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning samarali yo'llari va bosqichlari.....	223
<b>M.I.Yusupova</b>	
Expression of the concept of "Patriotism" in the russian-language media.....	231
<b>M.M.Aralov</b>	
OTM talabalarining grafik tayyorgarliklagini rivojlantirish vositasi sifatida .....	235
<b>U.Abdullayeva</b>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda ekologik ta'lum va tarbiyaning ahamiyati hamda ularning qiyosiy tahlili .....	124
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari .....	241
<b>J.X.Boysunov</b>	
Yoshlarda ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning falsafiy mohiyati.....	246
<b>B.I.Beshimov</b>	
Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa va uning tahlili.....	250
<b>Z.N.Usmonov, M.A.Mirzajonova</b>	
Umumiy o'rta ta'lum maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyat fani nazariy bilim asoslarini o'qitishni monotoringi .....	255
<b>M.X.Raxmonova, M.O.Karimova</b>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potensialini pivojlantirishning dolzarbli va mohiyati....	260
<b>N.S.G'aurova</b>	
Ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasining pragmatikasi.....	261
<b>G.M.Kamalova</b>	
Методология преподавания физической культуры в вузах на современном этапе .....	266
<b>R.M.Ubaydullayev</b>	
Qishloq qizlari jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan metodika orqali baholash .....	270
<b>A.K.Nafasov</b>	
Tarixda sivilizatsiyalarning shakllanishi tarixi xususida .....	274
<b>F.A.Ikramov</b>	
Mustaqil ta'lum faoliyati asosida talabalarning huquqiy ta'lmini tashkil etishning pedagogik omillari .....	277
<b>D.T.Tursunova</b>	
Talaba xotin-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning mazmuni va psixologik asoslari .....	281
<b>D.D.Boymirzaeva</b>	
O'zbekistonda oliy ta'lum muassasalarida tashkiliy faoliyat va boshqaruv amaliyotining mavjud muammolari tahlili .....	286
<b>I.I.Soliyev</b>	
Yangi O'zbekistonda OTMlar boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish vazifalari .....	292
<b>S.S.Qozaqova</b>	
Hikoya tuzishga o'rgatish mактабгача yoshdagи bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida .....	298
<b>F.A.Askarov</b>	
Jismoniy tarbiya darsi jarayonida interfaol usullar ta'lum samaradorligini asosiy bo'g'ini sifatida ..	304
<b>D.Z.Isaboyeva</b>	
Boshlang'ich ta'lum o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (xalqaro baholash dasturi) .....	308
<b>M.I.Ne'matov</b>	
O'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning etno-pedagogik asoslarini takomillashtirish .....	311

## JISMONIY TARBIYA DRSI JARAYONIDA INTERFAOL USULLAR TA'LIM SAMARADORLIGINI ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA

### ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ В ПРОЦЕССЕ УРОКА ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ КАК ОСНОВНОЕ ЗВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

### INTERACTIVE METHODS IN THE PROCESS OF THE PHYSICAL EDUCATION LESSON AS THE MAIN LINK OF EDUCATIONAL EFFICIENCY

**Askarov Fakhritdin Alisherovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Namangan davlat universiteti, Jismoniy madaniyat kafedrasini mudiri, dotsent

#### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolqda jismoniy tarbiya darsi jarayonida interfaol usullar ta'lim samaradorligini asosiy bo'g'ini sifatida keng fikrlar va faktlar keltirilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya darslarida interfaol usullari hozirgi kunda qo'lash samadorligi bo'yicha atroflicha tavsiyalar keltirilgan.*

#### **Аннотация**

*В данной статье представлен широкий спектр идей и фактов как основного звена эффективности интерактивных методов в ходе уроков физического воспитания. Также даются подробные рекомендации по эффективному использованию интерактивных методов на занятиях по физическому воспитанию.*

#### **Abstract**

*In this article, a wide range of ideas and facts are presented as the main link of the effectiveness of interactive methods in the course of physical education lessons. Also, detailed recommendations on the effective use of interactive methods in physical education classes are given.*

**Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiya, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya.

**Ключевые слова:** Педагогическая технология, физическая культура, физическое воспитание.

**Key words:** Pedagogical technology, physical culture, physical education.

#### **KIRISH**

Innovattsion texnologiyalar oldindan loyixalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, sharoitni, eng asosiysi, talabaning imkoniyati va extiyojini xamda xamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini xisobga olishi kerak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, talaba-talabani ta'larning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan xar bir darsni yaxlit xolatda ko'ra bilish uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyixalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchini u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta axamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi xar bir mavzu, xar bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talaba-o'qituvchilarning imkoniyati va extiyojidan kelib chiqqan xolda tuziladi.

Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy uslubiyot, pedagogika va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p usullarni bilishi kerak bo'ladi. Xar bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyixalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

#### **ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR**

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'yan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit xolda aks etgan bo'lishi xamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritani tuzilishi o'qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayoning barcha qirralari o'z aksini topadi.

**Pedagogik texnologiya nima?**

Pedagogik texnologiya - bu jamiyat extiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakkantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini majmua sifatida ko'rib uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchi pedagogning o'qitish vositalari yordamida talabalarga nomallum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan taosirini

---

## ILMIY AXBOROT

nazoratda tutuvchi va ta'lrim natijasini baxolab boruvchi texnologiyalashgan ta'limi yadbirdir degan xulosaga keladi.

Pedagogik texnologiyaning avvalgi uslublardan afzalligi, u ta'lrim jarayonini bir butunlikda ko'rib, ta'lrim maqsadi, uning mazmum, bilim berish usullari va vositalari xamda ta'lrim oluvchi va ta'lrim beruvchilarni kompleksga keltirib, ta'lrim bosqiclarini loyixalab, ta'lrim jarayonini nazorat qilish va ta'lrim natijalarini baxolash kabi qismalarini o'zoaro uzviy bog'lab kompleksga keltirib turib, uning loyixasini tuzilishidadir.

Uning ananaviy uslublardan keyingi farqi, u talabalarni o'zlariga berilgan bilimlarni yodlab olib aytib berishiga emas, balki ta'lrim va tarbiya jarayonining yakunida amaliy ishlarning bajarilishiga yo'naltirilganligidadir.

Ta'lrim amaliyatiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch satxi belgilanadi: umumiy pedagogik, xususiy, uslubiy.

Umum pedagogik texnologiya yaxlit ta'lrim jarayonini ifoda qiladi.

Xususiy uslubik texnologiya bir fan doirasidagi o'quv tarbiya jarayonini amalga oshirish uslublari va vositalaridan iborat bo'ladi.

Lokal (modul) texnologiya o'quv tarbiya jarayonining maxsus bo'limaliga texnologiyani tadbiq qilishni ifoda qiladi. Bu texnologiya xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalarni xal qilishga qaratiladi.

Kasbiy ta'lim tizimida ta'lim texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlarni o'zlashtirilishini, xarakatlarning reflektivligini aks ettiradi va o'z kasbiy faoliyatini shakilantiradi.

Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi. U konseptual asos, ta'lrim jarayonini mazmuni, texnologik jarayondan iborat bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning mezonlaridan biri boshqaruvga asoslangandadir. U o'quv jarayonini diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyixalash, undagi o'qitish uslublari va vositalarini o'zgartirib turishdan iborat bo'ladi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Pedagogik texnologiyaning samaradorlik mezoni ta'lim jarayonining aniq sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko'zda tutadi.

Qayta tiklash. Pedagogik texnologiya mezonlaridan biridir. Unda pedagogik texnologiya boshqa o'quv yurtlarida qo'llash imkoniyati deb tushuniladi.

Jismoniy madaniyatning umumiy nazariyasiga kirish, atamalarini aniqlash va ilmiy tadqiqot usullari mavzusi bo'yicha o'tiladigan dars loyixasini tuzishning nazariy asosi.

Pedagogik texnologiya tamoyillarining birinchisi muayyan o'quv fani, modul yoki dars mavzusidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish bo'lganligi tufayli, bu mavzuning umumiy maqsadini quyidagicha belgiladi: "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti" o'quv fani bilimlarining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy axamiyati xaqida, jismoniy madaniyat va boshqa asosiy tushunchalarning moxiyati, fan va uning bo'limalri xamda ilmiy tekshirish uslublarini tushuntirish yo'li bilan talabalarda bu bilimlarga bo'lgan extiyojni shakllantirish.

Pedagogik texnologiyaning ikkinchi tamoyili darsning umumiy maqsadidan kelib chiqib, mavzuni "qismrlarga", ya'ni "modullarga" ajratib, xar bir modulning maqsadini xamda modullar ichida xal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olishdir.

Mazkur darsning birinchi moduli - talabalarda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti o'quv faniga qiziqish uyg'otish, uning bilimlarini egallahsga ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy zaruriyat mavjudligini ilmiy asoslab berish uchun 15 daqiqa ajratiladi.

Bu modulda quyidagi savollarga javob berish ko'zda tutilgan:

1. Jismoniy tarbiya nazariyasi faniga kirish;
2. Jismoniy tarbiya nazariyasi qanday bilimlarni o'z ichiga birlashtiradi.

Ikkinchi modulda "Jismoniy madaniyat", "Jismoniy tarbiya" va "badanttarbiya" atamasining mazmuni va moxiyatini ochib berib, uning faoliyat sifatida, predmetlar boyligi; natija sifatida kerakli natijalarni bir butunligiga ishlatalishi, jamiyatda predmet boyligi sifatida madaniylashtirilishi bilan xarakterlanadi. Ayrim aralash va qisman bir-biriga qo'shilgan tushunchalar ularning moxiyatini ochib beriladi, unga 25 daqiqa vaqt ajratilgan.

Uchinchi modulda: Jismoniy madaniyat nazariyasi fani, jismoniy madaniyat xaqidagi ilmiy bilimlar tizimida nazariyani shakllanish yo'llari; jismoniy madaniyat nazariyasi fani va o'quv predmeti sifatida, jismoniy madaniyatdan foydalanishning tipik yo'nalishlari va shakllarining tavsifi; jismoniy madaniyatdan inson xayotining turli davrlarida foydalanishning ilmiy amaliy asoslari, ilmiy tekshirish uslublari (tajriba va nazariy tadqiqotlar) xajmiga qarab 20 daqiqa ajratiladi.

To'rtinchı modulda darsni xulosalash va savollarga javob berish maqsad qo'yilgan va unga 5 daqiqa vaqt ajratilgan. Darsni xulosalash jarayonida dars boshida qo'yilgan xar bir maqsadga qay darajada erishganlik qisqacha tushuntirib beriladi.

"Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti" o'quv fani bilimlarining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy axamiyati xaqida "Jismoniy madaniyat va boshqa tushunchalarning moxiyati, fan va uning bo'lmlari xamda ilmiy tekshirish uslublarini tushuntirish yo'li bilan talabalarda bu bilimlarga bo'lgan extiyojni shakllantirish.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning xar bir mavzusi xar bir mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik xarita unga faqat predmetni yaxlit xolda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga, yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasiga ko'ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik xaritani talabaning imkoniyati extiyojidan kelib chiqqan xolda tuzilishi, uni shaxs sifatida talimning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

O'qitish jarayonida o'qituvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar xamda zamonaviy uslublarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, xar bir masalaga ijodiy yondoshish, masouliyatini sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, taxlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogika va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan baozilari xaqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi xaqida qo'llanma beramiz. Ushbu uslubiy qo'llanmada keltirilgan zamonaviy uslublar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor etuk mutaxassis bo'lislariiga xamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

### XULOSA

Ushbu uslubiy qo'llanmadan foydalanuvchlar o'quv jarayonini tashkil etish uchun xavola etilgan texnologik treninglarni xuddi shu tartibda o'tkazishlari shart emas, xar qaysi o'qituvchi bu treninglarni umumiyl shaklini organ xolda o'zlarining dars texno-logiyalarini yaratishlari, berilgan treninglarni to'liq yoki ularning baozi bir bosqichlari, elementlarini ishlatalishlari mumkin.

Biz quyida o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan baozi bir treninglar (texnologiyalar)ga tavsifnomalar berib, baozilarini o'tkazish tartibi to'g'risida uslubiy tavsyanoma berib o'tamiz.

*"Tarmoqlar"* uslubi -talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

*"3x4"* uslubi - talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lrim jarayonini qiska, kichik gurux xolda taxlil etib, xulosa chiqara olishi, taorif bera olishiga qaratilgan.

*"Blits-o'yin"* uslubi - xarakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rghanayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, malumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

*"Intervyu"* texnikasi - talaba-talabaga savol berish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

*"Bumerang"* texnikasi talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishslash, o'rghanilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin xolda bayon eta olish xamda bir dars davomida barcha talabalarni baxolay olishga qaratilgan.

*"Talaba"* treningi - talabalar bilan individual xolda ishslash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, xamkorlikda ishslash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.

*"Muloqot"* texnikasi o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonida xamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

*"Boshqaruv"* texnikasi o'qituvchilar auditoriyani boshqarishdagi usullari xamda talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajgimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. 2017-yil.
- Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2017-yil.
- Azizxadjaeva N. «Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat» T., 2003.
- Bo'riboev A. «Pedagogik texnologiya» T., 2004 y.
- Golish L.V. «Zamonaviy ta'lim texnologiyalari» Xalq talimi 2003 y.

---

## ILMIY AXBOROT

6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar.- Qarshi. Nasaf. 2000. Mahmudov M. Komil inson shaksi va ijtimoiy tajriba. // «Pedagogik mahorat», 2002 y, 4-son, 6-10 b.b.
7. Sayidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yohud uning zamonaviy mazmuni haqida: Amaliyat va nazariya// Ma'rifat.-2004.- 21 fevral.
8. Saidahmedov N.Pedagogik amaliyotda yangi texnologilarni qo'llash namunalari.-Toshkent:RTN.2000.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnalogiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent:"Fan". 2005 y.
10. Tolipov O'. Tajriba-sinov ishlarda yangi pedagogik texnologiyalar // Xalq ta'limi j. 2000 y.
11. Farberman B., Musina R., Jumaboeva F. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. –T., 2002 y.
12. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T., 1999 yil, 84 bet.
13. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)